



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

XITOIY XALQ RESPUBLIKASI: FAN-TEXNIKA YUKSALISHI TARAQQIYOT OMILI (maqola rus tili materiallari asosida tayyorlandi)

Shoazim Shazamanov

dotsent,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ochiq hududlar, aholi, milliy daromad, energetika, janub, shimol, fan - texnika, qadam, rivojlanish, strategiya, model, innovatsiya, islohot, elektronika, korxonalar, fundamental, o'zlashtirish, dasturlar.

Annotatsiya: 1978-yildan boshlab Xitoy Xalq Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy burhondan chiqish uchun "Ochiq eshiklar siyosati"ga o'tdi. Mamlakatda xalqni o'n yillar davomida iskanjada tutib kelgan turli puch shiorlarga barham berildi. Uning aksi o'laroq, jamiyatni yuksaltirishning to'rtta modernizatsiyasi qabul qilindi. Bular: xalq xo'jaligini rivojlantirishning 1) qishloq xo'jaligi; 2) og'ir sanoat; 3) harbiy sanoat; 4) fan-texnika sohasi. Shu ma'noda maqolada XXRning o'tgan yillar islohotlar sabab modernizatsiyaning fan - texnika bilan bog'liq jabhalarini o'rganishga ahamiyat qaratildi. O'rganishlar asosida XXRning dengiz bo'yida tashkil etilgan "ochiq iqtisodiy zonalar" va qishloq xo'jaligini islohot etishdagi ilmiy yondashuvlar, chet el sarmoyalarining sohalarga to'g'ri yo'naltirilganligi, oxir-oqibat fan-texnikani isloh etish jarayonida ishlab chiqilgan dastur va loyihalar bugunga kelib o'z samarasini berayotganligini asosladi.

Maqola maqsadi Xitoy islohotlar iqtisodiy zonalarning o'ziga xosligi, fan-texnika strategiyasi, harbiy sanoat sohasini rivojlantirish jihatlarini o'rganishdan iborat. Obyekti XXRda "ochiq eshiklar siyosati" fan - texnikaning bilan bog'liq yutuqlarini tahlili qilib belgilandi.

Maqolani yozishda empirik materiallar, kuzatuv, qiyoslash, kontent va elektron resurslarda e'lon qilingan ilmiy maqolalar, Xitoy fan-texnikasiga oid chop etilgan loyiha va dasturlar metodologik asos qilib olindi.

THE PEOPLE'S REPUBLIC OF CHINA: THE RISE OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

DEVELOPMENT FACTOR

(the article was prepared on the basis of Russian language materials)

Shoazim Shazamanov

associate professor,

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: *open territories, population, national income, energy, south, north, science and technology, step, development, strategy, model, innovation, reform, electronics, enterprise, innovation, fundamental, development, programs.*

Abstract: *Since 1978, the People's Republic of China has switched to the "Open Door Policy" to overcome the socio-economic crisis. The country has put an end to various empty slogans that have kept the people in bondage for decades. On the contrary, four modernizations of the rise of society were adopted. These are: Spheres of development of the national economy 1) agriculture; 2) heavy industry; 3) military industry; 4) science and technology. In this sense, the article is focused on studying the scientific and technical aspects of the modernization of the People's Republic of China thanks to the reforms of recent years. In the course of research, it was proven that the "open economic zones" created along the coast of the People's Republic of China, and scientific approaches to agrarian reform, the correct orientation of foreign investment in the industry and, finally, the developed programs and projects in the process of reforming science and technology are bearing fruit for today.*

The purpose of the article is to study the features of Chinese reforms of economic zones, scientific and technological strategy, and the development of the military industry. The object was defined as an analysis of the achievements associated with the "open door policy" in the field of science and technology in the People's Republic of China.

Empirical materials, observations, comparisons, content and scientific articles published on electronic resources, published projects and programs related to Chinese science and technology were used

**КИТАЙСКАЯ НАРОДНАЯ РЕСПУБЛИКА: ПОДЪЕМ НАУКИ И ТЕХНОЛОГИЙ
ФАКТОР РАЗВИТИЯ**

(статья подготовлена на основе русскоязычных материалов)

Шоазим Шазаманов

Доцент,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:
открытые территории,

Аннотация: С 1978 года Китайская Народная Республика перешла к «Политике открытых дверей» для

население, национальный доход, энергетика, юг, север, наука и техника, шаг, развитие, стратегия, модель, инновации, реформа, электроника, предприятие, инновации, фундаментальные, развитие, программы.

выхода из социально-экономического кризиса. В стране положен конец различным пустым лозунгам, десятилетиями державшим народ в кабале. Напротив, были приняты четыре модернизации подъема общества. Это: Сферы развития народного хозяйства 1) сельское хозяйство; 2) тяжелая промышленность; 3) военная промышленность; 4) наука и техника. В этом смысле статья ориентирована на исследование научно-технических аспектов модернизации Китайской Народной Республики благодаря реформам последних лет. В ходе исследований было доказано, что «открытые экономические зоны», созданные вдоль побережья Китайской Народной Республики, и научные подходы к аграрной реформе, правильная ориентация иностранных инвестиций в отрасли и, наконец, разработанные программы и проекты в процессе реформирования науки и техники приносят свои плоды на сегодняшний день.

Цель статьи - изучить особенности китайских реформ экономических зон, научно-технической стратегии, развития военной промышленности. Объект была определена как анализ достижений, связанных с «политикой открытых дверей» в области науки и техники в Китайской Народной Республике.

В качестве методологической основы для написания статьи были использованы эмпирические материалы, наблюдения, сравнения, содержание и научные статьи, опубликованные на электронных ресурсах, опубликованные проекты и программы, связанные с китайской наукой и технологиями.

KIRISH

Xitoy iqtisodiy yuksalishida "ochiq eshiklar siyosati"ning amaliy ta'siri

1978-yilda Xitoy aholi soni katta, iqtisodiy rivojlanishi past mamlakat edi: qishloq xo'jaligi qo'l mehnatiga qarab qolgan, ishlab chiqarishda texnika-texnologiyalar eskirib ketgan edi. Iqtisodda texnik o'sish 20% ni tashkil etar edi. G'arb va boshqa Sharq davlatlarida esa bu ko'rsatkich 60% ga teng edi. Mamlakat iqtisodini tizimli modernizatsiya qilish zarur edi. Xomashyo yetishmovchiligi Xitoyga iqtisodiy o'sish imkonini bermas edi. Ekpertlarning hisob kitoblariga ko'ra, 1980-yildagi qishloq xo'jalik va ishlab chiqarish, YAIM hajmini 710 mlrd. yuandan, 4 barobar oshirish asosiy fondlar hajmini esa 1,55 trln. yuanga oshirish kerak edi. Biroq 2000-yilda milliy daromad hajmi 800 mlrd. yuan bera olardi, yana 40% mablag' yetishmasdi [1]. Shu bilan birga, fan, ta'lim, energetika, transport sohalari ham "investitsiya" [2] ga muhtoj edi. Bu yetishmovchilikni to'ldirish uchun chet el mablag'larini faol kiritish, ilg'or texnik modernizatsiyani amalga oshirish kerak edi[3].

Den Syaopin jahon taraqqiyotini to'g'ri baholadi va Xitoyni modernizatsiyalash uchun u xalqaro yordam olish va ochiqlik siyosatini qo'llab-quvvatlar ekan: "Ochiqlik siyosati—bu Xitoyga umid bag'ishlovchi omildir. Hech qaysi davlat jahondan ajralib, xalqaro aloqalarni kuchaytirmasdan, rivojlangan davlatlar ilg'or tajribalarini o'rganmasdan, fan-texnika yutuqlarini, chet el mablag'ini jalb etmasdan turib rivojlana olmaydi", degan ilg'or g'oyalarni ilgari surdi.

Xitoy 1975-yildan buyon ekspertni ko'paytirish va o'rniga chet elning ilg'or texnikasini olishni boshladi. Tashqi iqtisodiy oshkoralik, ochiqlik qisqa muddatli dastur emas, Xitoyning mazkur siyosati nafaqat o'n yilliklarga, balki yuz yilga mo'ljallangan siyosiy yo'l bo'lib, xitoy jamiyati tomonidan ko'ngildagidek qabul qilindi. Bunda muammolarni o'z o'rnida hal qilish ahamiyatli. Den Syaopin janub va shimol o'rtasida mutanosib rivojlanish bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi: agar janub rivojlanmasa, shimolda ishlab chiqilgan mahsulot va mablag'ni o'tkazish cheklanib qoladi, lekin janubning yanada qashshoqlashuvi shimol uchun tovar sotish bozorlari yo'qolib qolishini bildiradi"[4].

Den Syaopin siyosiy oshkoralikni har tomonlama kengaytirish kerakligi haqida shunday deydi: "Xitoy rivojlangan davlatlar bilan siyosiy oshkoralik asosida munosabat olib boradi, lekin uchunchi dunyo rivojlanayotgan davlatlarda ham ko'p sonli aholi yashaydi, yirik yer resurslariga ega, texnologiya borasida ham har birining o'z yutuqlari bor. Biz ko'p sohalarida hamkorlik va o'zaro hamjihatlik qila olishimiz mumkin. Bunda har bir davlat o'ziga foyda oladi"[5], degan nuqtayi nazarni ilgari surdi. O'tgan yillar davomida uning umumtaraqqiyot uchun ilgari surgan g'oyalari bugun ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Zero, bugungi globallashuv jarayonida dunyoning umumtaraqqiyot tendensiyasi va tinch yashashlik mohiyatini ochiqlik, o'zaro hamkorlik va yordam, bir-biriga ishonch, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash mezonlari belgilamoqda.

Xitoy SSSR va G'arbiy Yevropa davlatlaridan zamonaviy texnikalarni oldi. Xitoy iqtisodiy islohotlarning *o'ziga xosligi* shundaki, bu islohotlar tadrijiy, ya'ni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Tashqi ochiqlik siyosati boshlanishidagi *birinchi qadam* XKP MQning 1979-yil yanvarida tasdiqlagan "maxsus siyosat va egiluvchan choralar"i bo'lib, bu Guandun va Fuszyan provinsiyasiga qaratilgan choralar to'g'risida edi. *Ikkinchi qadam* 1980-yilda Maxsus iqtisodiy zonalar tizimi (Shenjen, Chjuxay, Shantou va Syamen zonalar) to'g'risidagi qaror bo'ldi. *Uchinchi qadam*–Xaynanda 1983-yilda Maxsus Iqtisodiy Zona (MIZ) tuzish qarori bo'ldi. 1988-yilda Xaynan Xitoyning birinchi butunlay ochiq provinsiyasi bo'ldi. *To'rtinchi qadam*–1984-yilda bir yo'la 14 ta bandargoh oldi shaharlarida ochiqlik siyosati kiritish bo'ldi. *Beshinchi qadam*– 1985-yildan boshlab qirg'oq bo'yi iqtisodiy rayonini tashkil etish, Yansz va Chjusyan daryolari quyi tomonida iqtisodiy ochiq rayonlar yaratish, Minszyan daryosi bo'yidagi Syamen rayonini, Chjanchjou va Syuanjou rayonlarini tashkil etish; *Oltinchi qadam*–1992-yilda provinsiyalar ma'muriy markazlarida tashqi ochiqlik siyosatini joriy etish, qator yirik va o'rta shaharlarda 15 ta bojsiz hududlar, 49 ta texnik - iqtisodiy o'zlashtirish hududlari va 53 ta yuqori texnologiya asosida ishlab chiqarish davlat zonalarini tashkil etib, ochiq tashqi siyosatni qo'llash. *Yettinchi qadam* – Xitoyning g'arbiy rayonlarini ochish (2000–2003-yillarda g'arbiy rayonlarda, 600 mlrd. yuan kapital kiritiladigan 36 ta uchish obyektlari qurish boshlandi. 2000-yilda Shensi provinsiyasida yuqori texnologiyalarni o'zlashtirish davlat zonalarini (g'arbiy xitoy silikon vodiysi)[7].

Tashqi ochiqlik siyosatining ajralmas bo'lagi chet el sarmoyalarini jalb etishdir. Xitoy iqtisodini rivojlantirishda chet el investitsiyalari har tomonlama o'z hissasini qo'shdi.

1. Xitoyda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni chet ellarga eksport qilish maqsadida 1980-yillardan boshlab iqtisodga yirik chet el investitsiyalari kiritish Xitoy kapitalining asosiy manbasiga aylandi. 1993-yilga kelib chet el investitsiyasi asosida ishlayotgan korxonalar mahsuloti Xitoy eksportining 37% ni tashkil etdi. Xitoy yalpi ichki mahsulotlarining 21% eksportdan tushdi. Ushbu eksportning 45% esa chet el investitsiyasi asosida ishlayotgan korxonalar mahsuloti hisobidan bo'ldi. Yuqori texnologik mahsulotlar eksportidan 30 mlrd. dollar daromad olindi. Bu 81% ga teng bo'ldi. 2000-yilga kelib eksport mahsulotlarining yarmi chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalarda ishlab chiqarildi.
2. Qo'shma korxonalar tashkil etilishi zamonaviy texnologiyalarni kuchaytirishda qo'l kelmoqda. Boshlang'ich bosqichda texnologiyaga sarmoya ajratish chet el korxonalari xitoy bozoriga kirish uchun asosiy shart qilib qo'yildi. Bu usul ishlab chiqaruvchilarga, bir

tomondan texnika – texnologiyalarini yangilash imkonini bersa, *ikkinchi* tomondan ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirdi.

3. Chet el investitsiyalari bilan ishlash barobarida XXRda menejerlar avlodi shakllandi.
4. Mazkur korxonalarda ko‘plab ish o‘rinlari paydo bo‘ldi. 2005-yilda chet el va qo‘shma korxonalarda 17,5 mln. kishi ish bilan band bo‘ldi. Tyanszin misolida olinsa, 1997-yilda 16 mlrd. doll chet el investitsiyasi kiritilib, 10000 ga yaqin korxonalar tashkil etildi va 320000 kishi ish bilan ta‘minlandi.

Maxsus iqtisodiy zonalar yaratish tajribasi ijobiy jihatlarini ko‘rsatdi. Bu tajriba Xitoy bo‘ylab keng yoyildi. Xalqaro valuta jamg‘armasi bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, 1979 –2001-yillar davomida Xitoy chet eldan 568,4 mlrd. doll. olgan, shundan 393,5 mlrd. doll. (69,2%) chet el investitsiyasi, 147,2 mlrd. dollari – chet el zayomlari (25,9%) va 27,7 mlrd. doll. boshqa turdagi chet el kapital kiritmalari 4,9% ni tashkil etdi. 1979-yildan 2004-yilgacha Xitoy qariyb 743,6 mlrd. doll. chet el kapitalidan foydalandi. Buning 560.4 mlrd. doll. chet el investitsiyalari bo‘lib, bu 75,4% 2005–2006-yillarda XXR jahon investitsiyalarining 6% ni qabul qildi, bu esa dunyo investitsiya oqimining 77% ini tashkil qiladi [8]. Xitoyning xo‘jalik ishlab chiqarish sanoati mamlakat YAIMning 46,6 % ni beradi. Bu sohada o‘shirish ko‘rsatkichi 12,9% (2007-yilda)ga yetdi. XXR xo‘jalik mollari ishlab chiqarish sanoati 360 ta sohaga bo‘linadi [9]. An‘anaviy sohalar (tekstil, ko‘mir, qora metallurgiya)dan tashqari yangi sohalar–neft qazib olish, neftni qayta ishlash, kimyo, farmatsevtika, avtomobil, aviatsiya, kosmik, elektron sohalar ham paydo bo‘ldi.

Xitoyda keyingi 50 yil ichida 370 ta yangi xo‘jalik mollari ishlab chiqaruvchi zavod-korxonalar soni bo‘yicha ham dunyoda peshqadamlik qilmoqda. Zavod va fabrikalarning asosiy qismi sharqiy va dengiz bo‘yidagi Lyaonin, Shandun, Guandun, Szyansi, Chjeszyan, Fuszyan, Anxoy provinsiyalarida hamda Shanxay, Tyanszin, Chunsin va Gongkongda joylashgan; Pinyan uyezdida qoplovchi plastik paketlar ishlab chiqariladi; Xitoyda xo‘jalik mollari ishlab chiqarish klaster usuliga o‘tkazilgan. Masalan, bosmaxona va kanselyariya mahsulotlari Shanxay janubidagi Chjeszyan provinsiyasidagi ikki uyezdga 1) Venchjou shahrining Sannan uyezdi; 2) Ninbo shahriga qarashli Ninxay uyezdida joylashgan. Venchjou yaqinidagi uyezdlarda dunyodagi eng yirik oyoq kiyim ishlab chiqaruvchilar joylashgan; Gongkong yaqinidagi Guandun provinsiyasiga qarashli Chjunshan shahrining Guchjen uyezdi qandillar ishlab chiqarish bilan mashhur. Guanchjou shimolidagi Xuadu rayonida avtomobil klasteri paydo bo‘ldi. Shilin uyezdi sumka ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda peshqadam hisoblanadi [10].

Xitoy xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida doimo ilg‘a boradi. Soliq ta‘tillarini berish, imtiyozli import tariflari qo‘llash, xorijiy ishchilarni ishga qabul qilish va bo‘shatishda yengillashtirilgan qoidalar bunga xizmat qiladi.

Xitoyda fan texnikani rivojlantirish strategiyasi

Den Syaopin “fan va texnologiya asosiy ishlab chiqarish kuchlardir” iborasini ko‘p takrorlar edi. XXR MK bosh kotibi Szyan Szemin: “Ilmiy yuksalish iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi bosh omili bo‘lib, u kelajakda fan-texnika rivojiga, yuqori texnologiyalar orqali davlat qudrati va salohiyatini yuksaltirishga, ijtimoiy-iqtisodiy tizimni kuchaytirishga, xalq turmush darajasini yaxshilashga olib boruvchi to‘g‘ri yo‘ldir” degan fikrini ta‘kidlaydi. Xitoylik ekspertlarning hisob-kitobi bo‘yicha Xitoy iqtisodiy o‘shirishda 30% daromad ilg‘or texnologiyalar hisobiga amalga oshirildi.

XXR fan taraqqiyoti va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali keyingi 25 yil ichida tarixda misli ko‘rilmagan islohotlarni amalga oshirdi. XXI asr boshiga kelib Xitoy fan-texnika rivoji bo‘yicha dunyoning eng ilg‘or mamlakatlari darajasiga yetib oldi. Xitoyning mislsiz yutuqlari iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlari hayotchan, to‘g‘ri, samarali ekanini ko‘rsatdi.

Islohotlar yillarida Xitoyda fan-texnikani boshqarish tuzumiga katta o‘zgartirishlar kiritildi–fan va texnologiya yutuqlarini iqtisodga tatbiq etish yangi mexanizmlari ishlab chiqildi. Xitoyda 1978–1985-yillarga mo‘ljallangan xalq xo‘jaligini rivojlantirish 8 yillik dasturi ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, uni o‘zining ko‘lami kattaligi jihatidan amalga oshirib bo‘lmadi. Xitoy

hukumati ko'zga ko'ringan olimlar jamoasi bilan ko'p martalab ilmiy kengashlar o'tkazib, dunyoning eng ilg'or davlatlari – AQSH, Yaponiya, Rossiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribalarini chuqur va to'laqonli tahlil qildi. Natijada fan–texnikani rivojlantirish bo'yicha 12 ta asosiy yo'nalish ishlab chiqdi. Bu yo'nalishlar XXR fan-texnikaning rivojlanishi (FTR) bo'yicha 1986–2000-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturining asosini tashkil etdi[11].

Ilmiy texnologik rivojlanishning asosiy maqsadlari *quydagilarni* nazarda tutadi: ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun fan-texnika taraqqiyotini bosh mezonga aylantirish; ishlab-chiqarishdagi an'anaviy sohalarida texnika darajasini ko'tarish va dunyo standartlari maqomiga olib chiqish; jamoat ishlab-chiqarishning samaradorligini oshirish; moliyaviy, texnik, kadrlar bo'yicha qarorlarni nazarda tutgan holda tovarlarning dunyo bozorida sifati va raqobat bardoshligini ta'minlash, Biotexnologiya, informatika, avtomatlashtirish, energetika, kosmik va lazerlarni taraqqiy ettirishga bor kuchni qaratish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Xitoy FA Pekin shahrida joylashgan, 160 ta fan-texnika tashkilotlari va ularning yirik va o'rta shaharlaridagi filiallari ilmiy-texnik tadqiqotlar markazlari hisoblanadi. FA aniq fanlar bo'yicha kompleks tadqiqotlar markazi hamda oliy ilmiy boshqaruv organidir. XXR FANing fizika-matematika, kimyo bo'limlari hamda Yer, biologiya, muhandislik ilmiy bo'limlari mamlakat bo'ylab 100 dan ortiq ilmiy-tadqiqotlar markazlariga ega FA tadqiqotlarni 80 ta davlat ilmiy-tadqiqot institutlariga mujassamlashtirishni rejalashtirmoqda.

Reja bo'yicha ulardan 30 tasi dunyo miqyosidagi ilmiy-tadqiqot markazlari bo'ladi. Xitoy FA davlat ta'sis etgan oliy ilmiy muassasa hisoblanadi. 651 ta olim Fan Akademiklari etib saylangan, ular orasida 44 nafari xotin-qizlardir. Xitoy muhandis-texnik fanlar Akademiyasi muhandislik-texnik sohadagi tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. 2003-yilda muhandislik texnik akademiya tarkibi (611 nafar akademikka) yana 70 nafar akademikka ortdi.

Oliy o'quv yurtlari olimlari, tadqiqotchilari ham fan-texnika taraqqiyotiga katta hissa qo'shmoqda. Oliy o'quv yurtlari o'rta va kichik ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik qiladi. Nazariya yordamida amaliyotda uchraydigan xato-kamchiliklar bartaraf etib beriladi. Buning natijasida iste'mol bozori raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'lib boradi, olingan nazariy bilimlar esa ishlab chiqarishga tatbiq etiladi.

1986-yilda Davlat Aniq fanlar Fondi tashkil etildi. Uning vazifasi davlat moliyaviy mablag'larini fundamental va amaliy tadqiqotlarga yo'naltirishdan iborat. Taxminan 10 yil ichida mazkur qo'mita 6,6 mlrd. yuanni 52 000 ilmiy mavzuni rivojlantirishga berdi. Taxminan 60 000 olim va tadqiqotchilar o'z ishlari bilan bu jarayonda ishtirok etishdi.

XXR ijtimoiy Fanlar Akademiyasi va uning mintaqaviy bilimlari mahalliy mavzularni o'rganadi va ijtimoiy tadqiqotlar bilan shug'ullanadi.

Xitoy davlati fan-texnika sohasini rivojlantirishda quyidagi *uch darajali* taraqqiyot modelini yaratdi:

- 1) innovatsion ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy qurilish va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy platsdarmiga xizmat qiladi;
- 2) yuqori texnologiyalarni kiritgan holda yuqori va yangi texnologiyalar ishlab chiqarish tarmog'ini yaratish;
- 3) fundamental tadqiqotlarni kuchaytirish. Mazkur uch darajadagi ishlarni amalga oshirish uchun dastlab amaliy tadqiqotlarga ustuvorlik berildi va fan – texnikani rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqildi.

XXR ijtimoiy - siyosiy rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion ilmiy tadqiqot dasturlari quydagilar: “shturm–hujum rejasi”, “uchqun” Dasturi, Fan – texnika yutuqlarini tatbiq etishning Davlat ustuvor rejasi, Davlat ijtimoiy rivojlantirish fan-texnika dasturi, 863 – dastur, “Alanga” dasturi[12].

-“Hujum” dasturi 1982-yilda tuzildi. Iqtisod muammolarini hal etish uchun asosiy texnologik sohalariga hujum qilish va egallab olish. Dastur hukumat va soha tarmoq korxonalari hamda provinsiyalari mablag'lari bilan ta'minlanib turdi.

– “Alanga”[13] Dasturi 1986-yilda ishlab chiqilgan bu dastur fan-texnik yutuqlari asosida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratildi. Dastur bank kreditlari, ijtimoiy tushumlar, davlat qo‘shimcha moliyalashtirish asosida ta‘minlanadi.

– Fan - texnika yutuqlarini ustuvor tatbiq etish davlat dasturi 1990-yildan amalga oshirila boshladi. Maqsadi mavjud fan-texnika yutuqlarini iqtisodga tatbiq etish uchun imkoni bor barcha qulayliklar yaratish. Ta‘minlovchi manba-kreditlardan tushgan tushumlar, kapital investitsiyalar, korxonlarning xususiy mablag‘lari, jamoat ijtimoiy mablag‘lari, soha va provinsiya mablag‘lari, davlat eng muhim o‘rinlardagina yirik bo‘lmagan mablag‘ beradi.

–*Ijtimoiy rivojlantirish bo‘yicha Davlat fan-texnika Dasturi*[14].

Dastur 1996–2010-yillarga mo‘ljallangan, ushbu dastur inson turmush sifatini yaxshilash, inson kapitalini asrash, yashash sharoitlarini yaxshilash, inson va tabiat munosabatini yaxshilash, ijtimoiy sohaga fan-texnika taraqqiyotini olib kirishni nazarda tutadi. Dastur quyidagi sohalarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi: tibbiyot va sanitariya xizmati, sog‘liqni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, ekologik muhitni yaxshilash; tabiiy ofatlarda yetarli chora ko‘rish; shahar uysozligi qishloq qurilishi sohalari.

1988-yilda Davlat dasturi asosida “Yangi bilimlar yaratish” uchun 3 yil davomida 4,8 mlrd. yuan (taxminan 600 mln. doll.) mablag‘ ajratildi. Bu intellektual tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro miqyosdagi innovatsiya markazlarini tashkil etishga qaratildi.

1988-yilda davlat o‘rta va kichik fan-texnika soha muassasalari tuzish uchun 1 mlrd. yuan (tax. 120 mln. doll.) ajratdi.

–*863 Dastur yuqori texnologiyalar sohasida ilmiy tadqiqot va taraqqiyot bo‘yicha davlat dasturi*[15].

Dastur 1986-yil martidan ishga tushdi, maqsadi 2000-yildan keyingi davrda ham ishlab chiqarishga eng yangi texnologiyalarni tatbiq etishda peshqadamlik vazifasini bajarish. Dasturda 8 ta ustuvor yo‘nalish belgilandi;

- biomuhandislik;
- kosmik texnika;
- informatika;
- lazer texnikasi;
- avtomatika;
- energetika;
- yangi (na-na) materiallar;
- jahon okeanini o‘zlashtirish texnologiyasi[16].

1986–2000-yillarda Dastur ijrosidan 2000 ta patent, 47000ta ilmiy maqola, 56 mlrd. yuanlik yangi mahsulotlar ishlab chiqarildi, 200 mlrd. yuanga teng iqtisodiy foyda keltirildi. 863 – *Dastur ijrosi* tufayli 15 yilda 10 000 ta fan doktori, magistr va boshqa ilmiy-texnik kadrlar tayyorlandi[17].

“863–Dastur”[18] ning amaliy ahamiyati shuki, XXR texnologiyalar sohasida dunyodagi yuqori o‘rinlarga tenglashdi. Ayrim sohalarda Xitoy yo‘q joydan 60% ga qadar ko‘tarilib, jahonda ilg‘or texnologiyalar ishlab chiqaruvchilar safidan o‘rin oldi. 863–Dastur tadbirkorlik qatlami bilan hamjihatlikda intellektual mulkchilik huquqi asosida mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, bu–quyidagi sohalari: biomuhandislik, dori-darmonlar, aloqa uskunalari, yuqori ko‘rsatkichli hisoblash mashinalari, xitoy shiftdagi dasturni kiritish uskunalari, sun‘iy kristallar, fotoelektron materiallar va jahonda boshqa eng yangi ilg‘or texnologiyalar yaratish va Xitoydagi mahsulotlarning boshqa davlatlar mahsulotlariga qarshi raqobatbardoshligini ta‘minlash. “Alanga” dasturi – milliy fan-texnikasini rivojlantirish, yuqori va eng yangi texnologiyalarni tatbiq etish 1988-yildan ishga tushdi va uning maqsadi Xitoy ilmiy-texnik salohiyatini yuksak darajaga olib chiqish, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish mahsulotlarini tijoratlashtirish. Dastur jamoat mablag‘laridan moliyalashtiriladi, hukumat eng yaxshi tashabbusli g‘oyalargagina mablag‘ ajratadi. “Alanga” dasturiga chet ellik fuqarolar qatnashishi cheklangan edi. Bu dastur mamlakatda yuqori texnologiya ishlab chiqarish

zonalari yaratish imkonini yaratdi. 1990-yil avgustdan buyon Pekinda, Tyanszinda, Shenyanda, Uxanda, Nankinda 30 ga yaqin iqtisodiy hududlar tashkil etildi [19].

Xitoy qisqa muddat ichida 100% elektron televizor, vidiomagnitofonlar, DVDlar kabi jihozlarni xitoy ehtiyot qismlari qo'yib butlanishiga erishdi.

Yuqori texnologiyalar

Pekindan shimolroqda joylashgan Xaydyan rayonida Xitoyning "Silikon vodi" [20] si yaratildi. Bir qancha yirik shaharlarda zamonaviy milliy industriya–texnologiya parklari tashkil etildi. 2005-yildan buyon Xitoy dunyo bo'yicha yuqori texnologiya eksperti hajmi bo'yicha oldingi o'ringa chiqib oldi.

Axborot texnologiyalari sohasida shunday texnologiyalar yaratish ustida ish olib borilmoqda bo'lib, ular kelgusi asr boshida "EHM", "intellekt" tizimlarini jadal takomillashtirish va kengroq qo'llanilishiga olib chiqishi kerak.

Biotexnologiya sohasidagi tadqiqotlar va izlanishlar oziq-ovqat resurslarini orttirishga, yangi energiya manbalarini topish, eski manblarni qayta tiklash yo'lga qo'yilmoqda. Og'ir kasalliklar oldini olish va davolash, sanoatning chiqindilarsiz va atrof-muhitni zararlantirmaydigan usulda rivojlantirish kabi yo'nalishga qaratilmoqda.

Zamonaviy o'lchov texnikalari, hisoblash va aloqa, ob-havo ma'lumotlari texnikalari, foydali qazilmalarni qidirib topish, tadqiqot natijalarini qayta ishlash texnikalari, o'rmon, qishloq xo'jalik, sanoat mahsulotlaridagi sifat va zararlanganlikni nazorat qilish texnikalarini takomillashtirish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi qo'l telefonlari, ko'chma va stantsionar elektron texnologiyalarning qismlari Xitoyda ishlab chiqarilmoqda. Deyarli hamma mashhur brendlar: (Apple, Dell, HP va boshqalar) (Janubiy Koreya korxonalari bundan mustasno) Xitoyda tayyorlanib, ishlab chiqarilmoqda [21].

Elektron qurilmalar xususiy modellari Xitoyda yaratilib, tayyorlab berilmoqda. Xitoy jahonning taniqli brendlariga o'xshash nusxalar soxta va kontrafakt mahsulotlarni ham ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan.

2004-yildan beri Xitoy ofis va telemuloqot jihozlari ishlab chiqarish bo'yicha ham dunyoda peshqadamlikni qo'lga oldi. Aloqa va telekommunikatsiya vositalari sohasi Xitoy elektron texnikalar bozoridagi eng barqaror rivojlanib borayotgan va eng katta soha hisoblanmoqda. Ayniqsa, mobil aloqa tizimi vositalari savdosida o'sishning baland darajalari kuzatilmoqda. XXI asrda Xitoy smartfonlar, kompyuterlar bozorining qonuniy hal etuvchisiga aylandi. Buni "lenevo, Huawei, ZTE, Meizu, Xiaomi" [22] va boshqa kompaniyalar misolida ko'rish mumkin.

Xitoy harbiy sanoat kompleksi termoyadroviy qurollardan tortib boshqa barcha turdagi qurollarni ishlab chiqarmoqda. Ballestik raketalar o'rnatilgan suv osti kemalari qurilishini yo'lga qo'ygan. Ukrainadan sotib olingan sovet aviatashuvchi kemasini qayta sozlab chiqdi va yana bir qancha avianosetslarni qurish ustida ish olib bormoqda.

Xitoy o'zi uchun va eksport uchun harbiy samoliotlar: Chengdu FC-1 Xiaolong) [23] shuningdek, qit'alararo va ballestik raketalar (masalan, Dunfen (raketa) ishlab chiqarish ham rivojlanmoqda. O'q otar qurollar PTRK (Tankka qarshi raketa majmuasi "KORNET-EM" – dushman tomonidan uyushtirilgan radioelektron va optik shovqin sharoitida quruqlik va havo nishonlariga qarshi kurashish uchun barcha turdagi lazer nurlarini boshqarish tizimiga ega shovqinlardan to'liq himoyalangan, yuqori aniqlikdagi uzoq masofali raketa tizimi. PZRK Ko'chma zenit-raketa majmuasi "Stinger" (FIM-92 "Stinger"), MLRS ko'p uchiruvchi raketa tizimi (MLRS) – ko'p zaryadli ishga tushirish moslamasi va reaktiv snaryadlarni o'z ichiga olgan raketa qurollari majmuasi (masalan, 63 rusmdagi) kabi modellari ko'p miqdorda ishlab chiqarmoqda [24].

2019-yilda Xitoy kompaniyalari Defense News versiyasi bo'yicha dunyoning yirik harbiy sanoat ta'minlovchilari 100 talik reytingiga kiritildi va bunda ular Rossiya korxonalaridan o'zib ketdi; Reytingda 8 ta kompaniya bor bo'lib, birinchi o'ntalik orasida Xitoyning AVIC (Aviation Industry Corporation of China) [25], Norinco (China North Industries Group Corporation

Limited)[26] va CASIC (China Aerospace Science and Industry Corporation)[27] kompaniyalari bor.

XULOSA

Xulosa o'rnida qayd etadigan bo'lsak, Butunxitoy xalq vakillari qurultoyining navbatdan tashqari 1978-yil 11-dekabr oyida navbatdan tashqari bo'lib o'tgan 11-chaqriq, 3-sessiyasida jamiyatni modernizatsiyalash haqidagi hujjat shunchaki xo'jako'rsinga emas edi. Hujjat sifatida ilmiy asoslangan bo'lib, tarixan butun bir millat taqdiri, istiqbollari o'ziga mujassam etgan edi. Hujjatning tarixiy ahamiyati men xitoylikman degan barcha ziyoli qatlam, xuachyaolar, tarix ijodkori bo'lgan ommani o'z atrofida birlashtira oldi. Hujjat XKPni nafaqat og'ir vaziyatdan, balki xalqning yaratuvchanlik kuch-qudratini islohotlarni amalga oshirishga safarabar eta oldi.

Xitoy islohotining yutug'i uning tadrijiy amalga oshirishi bilan emas, balki ilmiy asoslanganligi bilan ahmiyat kasb etadi. Shu ma'noda qabul qilingan dasturlar vaziyatdan chiqish, jamiyatda noz-ne'matlarni ishlab chiqarishda, ijtimoiy-siyosiy muammolarga yechim topish, fan-texnika va harbiy sohani rivojlantirish uchun amaliy yechim bo'lib xizmat qildi. Aksincha, aksariyat davlatlarda yangilanishlar ilmiy asoslanmaganlik orqasida islohotlar mikro va makro darajasida o'zining kutilgan natijalarini bermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гулева М. А. Развитие образования в сельских регионах Китая как важный фактор социально-экономического развития в период 14-й пятилетки <https://www.orientalistica.su/jour/article/view/687/736>
2. Любомудров А.В. Прямые иностранные инвестиции в экономику Китая. <https://cyberleninka.ru/article/n/pryamyie-inostrannyye-investitsii-v-ekonomiku-kitaya-1>
3. Роман Романович. Как из аграрной страны превратиться в технологического лидера <https://journal.tinkoff.ru/chinese-miracle/>
4. Хэ Сюэянь, А. В. Коноваловой «Китайское чудо» опыт экономического развития 1990х годов» <https://www.hist.msu.ru/Labs/Ecohist/OB9/he.htm>
5. Романова Г. Н. Формирование внешнеэкономических связей Китая в – е годы XX века <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-vneshneekonomicheskikh-svyazey-kitaya-v-80-e-gody-xx-veka>
6. Салицкий А. Семенова Н. Китайские представления о мироустройстве: традиция и современность https://www.perspektivy.info/oykumena/azia/kitajskije_predstavlenija_o_miroustrojstve_tradicija_i_sovremennost_2019-06-04.htm
7. Дин Жуджинь, Ковалев М.М. Новик В.В. Феномен экономического развития Китая. Монография. Минск Издательский центр БГУ 2008. С. 282 -291.
8. Дин Жуджинь, Ковалев М.М, Новик В.В. Феномен экономического развития Китая. Монография. Минск Издательский центр БГУ 2008. С. 275.
9. https://www.vedomosti.ru/finance/articles/2010/01/21/kitaj_opasaetsya_rastuschej_infl
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-razvitiya-malogo-predprinimatelstva-kitaya-na-primere-provintsiy-chzhetszyan-i-guandun>
11. Научно -техническая политика Китая: курс на глобальное лидерство <https://issek.hse.ru/news/688845347.html>
12. Программа 863-863 Program https://ru.wikibrief.org/wiki/863_Program
13. Государственные научно-технические программы <http://russian.china.org.cn/russian/209683.htm>
14. Борисенков В.П. Россия-Китай тенденции развития образования в XXI веке сравнительный анализ <https://msu.ru/upload/pdf/lsh2020/11730.pdf>
15. Борисенков В.П. Россия-Китай тенденции развития образования в XXI веке сравнительный анализ <https://msu.ru/upload/pdf/lsh2020/11730.pdf>
16. Программа 863-863 Program https://ru.wikibrief.org/wiki/863_Program

17. Наука и техника Китая http://ru.china-embassy.gov.cn/rus/kjhz/kjxx/200403/t20040301_3114254.htm
18. Наука и техника Китая (часть -1) http://khabarovsk.china-consulate.gov.cn/rus/kjhz/200405/t20040522_3665341.htm
19. <https://scsg.ru/ru/blog/sez-kratkiy-likbez-po-spetsialnym-ekonomicheskim-zonam-kitaya/>
20. Вэй Вэй. Силиконовая долина Китая <https://cyberleninka.ru/article/n/silikonovaya-dolina-kitaya>
21. <https://habr.com/ru/news/748756/>
22. Шульцев В. Цифровая экономика Китая: «Ассимиляция! Сопротивление бесполезно!» Часть -1 https://www.lastmile.su/files/article_pdf/4/article_4702_931.pdf
23. Ченду FC-1 Сяолун — истребитель-бомбардировщик совместной китайско-пакистанской разработки. В ВВС Пакистана самолёт имеет обозначение JF-17.
24. Михайлов Д.Ю. Состав и принцип действия СУ РСЗО «СМУРЧ» <https://cyberleninka.ru/article/n/sostav-i-printsip-deystviya-su-rszo-smerch>
25. Китайская корпорация авиационной промышленности <https://ru.wikipedia.org/wiki>
26. «Китайская северная промышленная корпорация» <https://www.gazeta.ru/tags/organization/norinco.shtml>
27. 中国航天科工集团有限公司 • 航天科工 («Китайская аэрокосмическая научно-промышленная корпорация») <https://vpk.name/library/f/casic.html>